

**INNOVATION RIVOJLANISH SHAROITIDA SANOAT  
KORXONALARINING IQTISODIY SALOHIYATINI BOSHQARISHNING  
MAZMUNI VA MOHIYATI**  
**Meliboyeva Ma'mura O'rino boy qizi.**  
**Jizzax politexnika instituti**  
**Iqtisodiyot va menejment kafedrasи assistenti**  
[meliboyevamamura8@gmail.com](mailto:meliboyevamamura8@gmail.com)  
**(93)-859-44-33**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sanoat korxonalarida ish jarayonini samarali tashkil etish, kadrlar tanlash, jamoa bilan birgalikda korxonani rivojlantirish va boshqarish xususida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Sanoat korxonalari, xodimlarni boshqarish, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi tizimni takomillashtirish, kadrlar tanlash, huquqiy munosabatlar, inson resurslari.

### **Kirish**

Jahon amaliyoti tahliliga ko'ra, global mashhuv sharoitida mamlakatlarda iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish, jumladan, sanoat korxonalari innovatsion boshqaruving tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish - yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishning muhim sharti sifatida baholanmoqda. Misol tariqasida "Global innovatsion indeks – 2021" ma'lumotlariga ko'ra, sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvi samaradorligini tavsiflovchi "Biznes sofistikasi", xususan bilim hamda innovatsiyalarni uzatish bo'yicha Shvetsiya, AQSH, Shveysariya kabi mamlakatlar yetakchi o'rirlarni egallagan holda, mazkur mamlakatlarda innovatsion iqtisodiyot hisobiga YAIMning 70 foizdan ortiq qismi yaratiladi<sup>1</sup>.

Yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi samaradorligini oshirishga ustuvorlik qaratilishidan dalolat beradi. Shuningdek, ushu mamlakatlarda sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishda innovatsion ishlanmalarga asoslanish, tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni texnik hamda texnologik jihatdan qurollantirish hisobiga ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlari barqaror rivojlanish tendensiyasiga ega bo'lib kelmoqda.

Jahon davlatlari qatorida O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazishga qaratilgan chora-

tadbirlarga alohida ustuvorlik qaratilib kelinmoqda, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’kidlaganidek “... biz O‘zbekistoni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz”<sup>1</sup>.

Jamiyat taraqqiyotining asosiy vazifalaridan biri demokratik hamda fuqarolik jamiyat qurish jarayonida fuqarolarning mamlakatda amalga oshadigan yangilanish va islohotlardagi faolligini ta’minalash uchun shart-sharoit yaratishdan iboratdir. Mazkur holat ijtimoiy hayotda hamda davlat va jamiyat boshqaruvida amalga oshiriladigan islohotlar jarayonida ham o‘ziga xos uyg‘unlikni taqozo etadi.

### Mavzuga doir adabiyotlar tahlili

Innovatsion rivojlanish sharoitida sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini boshqarish muammolari, zamonaviy bozor iqtisodiyotidagi uning o‘ziga xos roli O‘zbekiston va chet el olimlari tomonidan chuqur o‘rganib chiqilgan. Butun dunyoga mashhur chet el iqtisodchilarining ko‘plab ilmiy asarlarida zamonaviy bozor iqtisodiyotida sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini boshqarish muammolarining nazariy hamda amaliy jihatlari ko‘rib chiqilgan. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda sanoat korxonalarini boshqarish va innovatsion faoliyatning ahamiyati bilan bog‘liq mavzularni<sup>1</sup>, A.Smit va F.Galton kabi olimlar o‘rganishgan.

A.Smit nuqtai nazariga ko‘ra, korxonalarining iqtisodiy salohiyatini boshqarish jamiyatda unumli mehnat bilan band bo‘lgan aholi hissasi va mehnat unumdarligi darajasi bilan belgilanadi. Smit sanoat korxonalaridagi daromad va ish haqi masalalarini chuqur tadqiq etadi. Har bir sinf o‘zining asosiy daromadini: ishchilar ish haqi, kapitalistlar foyda, yer egalari esa renta oladilar. Smit ish haqi tirikchilik minimumidan ancha ortiq bo‘lishi, bolalar hayoti va tarbiyasiga oid harajatlar ham hisobga olinishi, ish haqi milliy boylik o‘sishiga bevosita bog‘liq bo‘lishi kerak degan fikrni olg‘a suradi.

F.Galton sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini boshqarish bo‘yicha turli fikrlarini aytib o’tgan: "Aniq va uzoq davom etadigan narsa", ya’ni ma’lum bir doimiylikka ega bo‘lgan belgini o‘lchash uchun sfigmograf, qon bosimini aniqlash uchun Mosso apparati va boshqa asboblardan foydalanish taklif etiladi. Boshqarish tizimida har korxona xodimlarining o‘z xarakteriga mos ravishda muomala qilish iqtisodiy salohiyatni oshirishda eng asosiy omillardan biridir. Xarakterning to‘g‘ri o‘lchovi "har bir odamning kichik kundalik ishlardagi xatti-harakatlari statistikasi" bilan ta’milanadi. F.Galtonning bu yo‘nalishdagi tadqiqotlari, garchi to‘liq

bo‘lmasa-da, sanoat korxonalarida xodimlarni boshqarishda shaxsning kognitiv bo‘lmanan xususiyatlarini o‘lchash vositalarini yaratishga turtki bo‘ldi.

Innovatsion rivojlanish sharoitida sanoat korxonalarini rivojlantirish muammolarining turli jihatlarini tahlil qilishga MDH mamlakatlari olimlaridan<sup>1</sup> L.I. Abalkin, Р.Н. Минниханов, A.O. Blinov, A.V. Busigin, E.V. Glushenko, T. П. Хохлова, B.N. Ichitovkin, A.N. Kaptsov, V.G. Kuznetsov, T.I. Kuzmin, I.I. Razumnova, F.M. Rusinov, Yu.V. Tixonravov, A.N. Tkachenko, V.A. Zyablyuk, V.A. Rube, V.A. Kirov, A.A. Krupanin, P.P. Chernikov, H.A. Храмцова, B.П. Баранчайев va boshqalar shug‘ullangan.

### Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada mantiqiy, tizimli tahlil, statistik-iqtisodiy va qiyosiy tahlil, taqqoslama va tarkibiy tahlil hamda qator boshqa usullardan foydalanilgan.

Milliy iqtisodiyot tarmoqlari, xususan, sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy salohiyatini boshqarish, boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning uslubiy asoslarini tadqiq etish dolzarb va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy muammo ekanligidan dalolat beradi u mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

### Tahlil va natijalar

Bugungi iqtisodiy rivojlanish sharoitida jahon taraqqiyotining zamonaviy bosqichida davlatlar sanoat tarmoqlarining rivojlanishi bir tomonidan mavjud resurslardan samarali foydalanish, ikkinchi tomonidan esa ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini innovatsion texnologiyalar acocida ta’minalash hamda yuqori darajadagi ixtisoslashish sharoitida kechmoqda. Jahon YAIMning umumiy hajmida sanoatning ulushi yaxlit holda Yaqin Sharq, Sharqiy Osiyo va Janubiy Afrika mamlakatlarida eng yuqori bo‘lib, Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, sanoat ishlab chiqarishi va ish bilan bandlik har bir mamlakatning iqtisodiyotiga yuqori darajada ta’sir ko‘rsatmoqda.

Barchasini hisobga olgan holda, jahonda industrial tarmoqlarni rivojlantirish borasidagi tajribalar negizida sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, innovatsion-texnologik faoliyatni rivojlantirish va shu asosda mahsulotlar raqobatbardoshligini ta’minalash, ishlab chiqarish faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni tasniflash, harajatlarni kamaytirish va

unumdorlikni oshirish, yuqori texnologiyalar bo'yicha jahon innovatsiya bozorlaridagi markazlar bilan hamkorlik o'rnatish, investitsiyalarni jalg etish kabi yo'naliishlardagi ilmiy muammolarni chuqur o'rganish tadqiqot ishining dolzarbligini oshiradi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida Farmonida davlat boshqaruvi organlarining «Davlat - inson uchun» tamoyili asosida hududiy masalalarni hal qilishdagi mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish hamda ularning strategik yo'naliishlarni rejalashtirishga qaratilgan yangi tizim yaratish maqsadida barcha bo'g'indagi davlat boshqaruvi organlarining bir yillik ish dasturini, shu jumladan jamoatchilik ishtirokida ishlab chiqish, ularning ijro holatini doimiy e'lon qilib borish amaliyoti yo'lga qo'yish, davlat boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning ijro etilishi jarayonini jamoatchilik tomonidan kuzatib borish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida muntazam e'lon qilib borish tizimi yaratilishi belgilab berilgan<sup>1</sup>.

Ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakatda mavjud iqtisodiyot tarmoqlari, xususan sanoat salohiyatini rivojlantirishning maqsadli dasturlari ijrosidagi kamchiliklarni tanqid qilgan holda "..islohotlarning qay darajada samara berayotganini ko'rsatadigan maqsadli dasturlarni amalga oshirish natijadorligi. Bular qatorida sanoat va boshqa tarmoqlarni rivojlantirishning iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlarini bo'lgan ishlab chiqarish quvvatlarining ahvoli, xarajatlarni va tannarxni pasaytirish, mahalliylashtirish va rentabellik darajasini, mahsulot raqobatdoshligini so'zsiz oshirishdir" deb ta'kidlagan edi<sup>1</sup>.

Ma'lumki, yuqorida islohotlarning barchasining zamirida davlat va nodavlat sektor korxonalarining barqaror sur'atlarda innovatsion salohiyatini ro'yobga chiqarib kelayotganligi yotadi. Shu sababli, bugungi globallashuv hamda milliy iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida milliy iqtisodiyot xususiyatlaridan kelib chiqqan holda innovatsion salohiyat, uni shakllanishi va rivojlanishini baholash, boshqarishning nazariy-uslubiy masalalarini kompleks tadqiq qilish, sanoat korxonalarida innovatsion salohiyatni rivojlantirish va boshqarish omillari va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, respublikada sanoat korxonalarida innovatsion salohiyatni oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, innovatsion salohiyatni baholash usullarini qiyosiy o'rganish va sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmlarining zamonaviy holati va tendensiyalarini aniqlash o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Yangilanayotgan O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy talablar asosida sifat jihatdan rivojlantirish, ishlab chiqarishga

innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, ishlab chiqarishning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini raqamli va innovatsion texnologiyalar asosida ta'minlash kabi sifat ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada, mamlakatimiz sanoatining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi muntazam o'sib bormoqda. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasida<sup>1</sup> «...yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish» ustuvor vazifalar qatoriga kiradi.

Albatta istiqlol yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari kabi sanoat tarmoqlari ham jadal rivojlangani holda neft va gaz, kimyo sanoati, avtomobilsozlik sanoati, qurilish materiallari va farmatsevtika sanoati kabi yangi-yangi sanoat tarmoqlari shakllangani hamda rivojlangani holda bugungi kunda jahon bozoriga “O'zbekistonda ishlab chiqarilgan” tamg'asi ostida minglab sanoat tovarlari taklif qilinmoqda.

Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat darajasi, uning raqobatbardoshligi va natijada umuman rivojlanish darajasini baholash mumkin. Korxonaning innovatsion faolligi qanchalik yuqori bo'lsa, uning innovatsion faoliyat shuncha intensiv bo'ladi. Shu o'rinda, Korxona iqtisodiy samaradorligini oshirish va takomillashtirish jarayonlarining asosiy tamoyillari guruhi quyidagicha tizimlashtirildi.

Ushbu maqolada Jizzax viloyatining 2008-2020 yillardagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'zgarishining tahlili, sanoat salohiyati hamda sanoat korxonalarini modernizatsiyalash va diversifikasiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatli sanoat va iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish, yuqori texnologiyali zamонавиј корхоналарни исхга туширish hisobiga 2007 yilda yalpi ichki hududiy mahsulot ishlab chiqarish hajmi 163147.0 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda viloyat bo'yicha ishlab chiqarilgan yalpi hududiy ichki mahsulot hajmi 21314.2 mlrd. so'mni tashkil etdi (1.2-jadval).

### 1.2-жадвал

#### Jizzax viloyatida korxonalar kesimida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm)

Ko'rsatkichlar	2018 y.		2020 y.		2022 y.	
	Mahsulot hajmi, mlrd. So'm	O'sish, %	Mahsulot hajmi, mlrd. So'm	O'sish, %	Mahsulot hajmi, mlrd. So'm	O'sish, %
<b>Jami sanoat</b>	<b>2 548,8</b>	<b>172,8</b>	<b>3 581,8</b>	<b>140,5</b>	<b>4 586,5</b>	<b>128,0</b>
<b>mahsulotlari</b>	919,3	118,4	118,4	129,5	1 948,7	163,6
<b>ishlab chiqarish</b>	229,8	29,6	297,75	32,7	487,127	40,9
<b>Hajmi</b>	383,1	49,39	496,25	53,7	811,85	68,17
<b>Yirik korxona-</b> <b>lar: jumladan:</b>	306,4	39,46	397,0	43,1	649,79	54,53
<b>To'qimachilik</b>	1 629,5	233,4	390,8	146,7	638,015	110,3

\* Jizzax viloyati Statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlangan

1.2- jadvaldan ko'rinish turibdiki, Jizzax viloyatida jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2017 yilda 2 548,8 mlrd. So'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatgich 2020 yilda 4 586,5 mlrd.so'mga, 2018 yilga nisbatan esa 128,0 % ga oshgan.

Sanoatni rivojlantirishda yangi sanoat tarmoqlarini barpo etish, mavjud tarmoqlarni rivojlantirish, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish bilan bir qatorda, ishlab chiqarish infratuzilmasini barpo etish, sanoat korxonalarini boshqaruvchi hamda yangicha ishlab chiqarishni ta'minlovchi intelektual asosni yaratishni ham taqozo etadi. Olib borilgan tadqiqotlarga asosan ta'kildash lozimki, innovatsion faollik mustaqil kategoriya bo'lib, innovatsiyalarning samaradorligi va muntazamligi, yangiliklarni yaratish va amalga oshirish bo'yicha harakatlar dinamikasi bilan tavsiflanadi (1.3-jadval).

### 1.3-жадвал

#### Sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatni oshirish tamoyillarini boshqarish\*<sup>1</sup>

Majmuaviy tamoyil	Korxona iqtisodiy salohiyatining asosiy jihatlarini belgilovchi ko'rsatkichlarni keng va har tomonlama tahlil etish ni boshqarish
----------------------	---

Maqsadlilik tamoyili	Iqtisodiy salohiyatni oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi ko'rsatkilar asosida aniq qo'yilgan maqsad va kelgusi rejalar uchun mosligi va natijadorligini boshqarish
Obyektivlik tamoyili	Iqtisodiy samaradorlikning oshirish va baholash usullarini aniq va ishonchli ma'lumotlar bilan tahlil qilish asosida hisoblash
Tizimlilik Tamoyili	Iqtisodiy salohiyatning o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi ko'rsatkichlar tizimini boshqarish
Samaradorlik tamoyili	Korxona yoki tashkilotda iqtisodiy samaradorlikni oshirish orqali -erishishi kutilgan ijobjiy, manfaatli natijalar va samaradorligini ta'minlash
Optimallik tamoyili	Iqtisodiy salohiyatning aniq, to'g'ri va optimal ko'rsatkichlaridan foydalanish asosida qo'yilgan maqsadga erishish
Ustuvorlik tamoyil	Korxona iqtisodiy samaradorlikni oshirish orqali kelgusida ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiyalash, mahsulot sifatini oshirish va ishchi-xodimlar malakasini rag'batlantirish natijasida innovatsion moyillagini shakllantirish

Sanoat korxonalari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar tasnifining nazariy ahamiyati shundan iboratki, u korxona faoliyatining muayyan yo'nalishlarini hisobga olgan holda samaradorlikning mohiyatini to'liq ochib berish, omillar o'rtaсидаги нисбатни аниqlash, alohida omillar ta'si rining xususiyatlarini yoritib berish imkonini beradi. Shunga ko'ra, iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqqan holda sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi fiziologik, texnik -texnologik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy -psixologik omillarni tadqiq qilish maqsadga muvofiq.

Sanoat-iqtisodiy tizimining rivojlanish holati hamda dinamikasini, uning yo'nalishini belgilaydigan tendentsiyalar va hodisalarning beqaror tabiat ko'pincha korxonalarning iqrисодиј samaradorligini va maksimal darajasidagi rivojlanishni ushlab turishga doir islohotlar amalga oshirishiga to'siq bo'lib turadi. Ushbu vaziyat korxonalar faoliyatiga, ularning tezkor reaksiya va o'zgaruvchan bozor muhiti omillariga moslashish qobiliyatiga, mavjud resurslar va boshqarish vositalaridan keng miqyosda foydalanishga erishish uchun maqbul ravishda foydalanishga yangi

talablar yaratadi. Innovatsion moliyaviy resusrlar, kadrlar rivojlanish darajasi, innovatsiyalar hamda bozor faolligi va boshqalar shular jumlasidandir.

Tadbirkorlikda korxona faoliyati natijalari, uning salohiyati va raqobatbardoshligi bilan bog'liq jarayon sifatida albatta isbotlangan. Shunday ekan tadbirkorlik faoliyatini boshqarish korxonaning butun boshqaruv tizimida yetakchi mavqega ega bo'lishi kerak, chunki bu uning qiymatini o'sishi uchun tegishli sharoitlar yaratadi desak adashmagan bo'lamiz.

### Xulosa va takliflar

Yuqorida ma'lumotlarga asosan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi sanoat korxonalari uyushmalarini tashkil etilishi orqali innovatsiyalarni o'zaro uzatish teziligini oshirish bilan bir qatorda, korxonalar o'rtasidagi innovatsion hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish imkoniyati yaratiladi. Sanoat korxonalari iqtisodiy salohiyatini oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish maqsadaga muvofiq:

- innovatsion loyihalarni sanoat korxonalari tomonidan amaliyotga joriy etish darajasini oshirish;
- sanoat korxonalari o'rtasida innovatsion loyihalarni amalga oshirish bo'yicha xalqaro hamkorlikni kengaytirish;
- sanoat korxonalari o'rtasida innovatsiyalarni o'zaro uzatishni jadallashtirish;
- hududlarda innovatsion marketing tadqiqotlarini o'tkazish;
- yangi innovatsion loyihalarga bo'lgan talablarni shakllantirish;
- sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini rivojlantirishda ichki va tashqi imkoniyatlardan foydalanish samaradorligini oshirish

Fikrimizcha, yuqorida taklif etilgan sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvi samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini amaliyotga joriy etish orqali uzoq muddatli istiqbolda mamlakatimiz sanoat korxonalarining innovatsion faolligi darajasi ortib, innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish imkoniyatlari kengayadi. Shuningdek, sanoat korxonalarining innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlashning dasturlarining samaradorligi ko'rsatkichlari ortib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligi ko'rsatkichlari yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Global Innovation Index 2021: Tracking Innovation through the Covid-19 Crisis / World Intellectual Property Organization, 2021. -p. 226. [https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo\\_pub\\_gii\\_2021.pdf](https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_gii_2021.pdf)
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. - <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-presidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
3. Фридман Дж. Петти В., Смит А., Рикардо Д. Сочинения // Классика экономической мысли. - М.: ЭКСМО Пресс, 2000. – 164 с.; Кантильон Р. Основы предпринимательской деятельности. Москва: 2001. – 44 с.; Marshall A. Industry and trade. – Vani Prakashan, 2015. – 556 р. Пол Э. Самуэльсон, Вильям Д. Нордхаус. Экономика. – Издательство: Вильямс, 2015. – 1360 с.;
4. Абалкин Л.И. Вызовы нового века. - М.: Институт экономики РАН, 2001; Р.Н. Минниханов Инновационный менеджмент в АПК: учеб. пособ. для вузов / Р.Н. Минниханов [и др.]. – Москва: Изд-во МСХА, 2003. – 432 с; Глушенко Е.В., Капцов А.Н., Тихонравов Ю.В. Основы предпринимательства. – М.: Алма-Матер, 2008; Камаев В.Д. Экономика и бизнес. – М.: МГТУ, 1993; Герчикова И.Н. Менеджмент. М.: ЮНИТИ, 2004; Шестаков А. Предпринимательская деятельность. – М.: 2000. Хохлова, Т. П. Теория менеджмента: история управленческой мысли: учебник; рекомендовано ФГБОУ ВПО /Т.П.Хохлова. — М.: ИНФРА-М, 2013. С.384. Храмцова Н.А., Ахматова А.А. Теоретические основы управления инновационной деятельностью предприятия. Стратегия и бизнес. Электронный научно-экономический журнал. № 10 (54). 2018. С. 18-22.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. Конунчилик ма’лумотлари milliy bazasi, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 ў., 06/22/113/0330-son)
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Taqnidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” mavzusidagi 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi// Uza.uz
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi 4947-sonli farmonining 1-ilovasi «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini

rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi» // Lex.uz.

